

O'ZBEK TILINING DAVLAT TILI SIFATIDAGI MAQOMI

Ravshanova Nozima Mansurjon qizi¹

¹ *JDPU talabasi*

Maxammadiyev Xurshid¹

¹ *Ilmiy rahbar: JDPU o'qituvchisi, dotsent (PhD)*

nozimaravshanova07@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received: 22.05.2025

Revised: 23.05.2025

Accepted: 24.05.2025

ANNOTATSIYA:

Ushbu maqolada o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomi, uning tarixiy ildizlari, huquqiy asoslari va mustaqillikdan keyingi taraqqiyot bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, tilga bo'lgan amaliy munosabat, duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritiladi.

KALIT SO'ZLAR:

O'zbek tili, davlat tili, til siyosati, til madaniyati, mustaqillik, qonunchilik, milliy qadriyatlar, ona tili, til rivoji

KIRISH. O'zlikni anglash , milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga , avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir [1; 52].

Til har bir millatning ruhi, qalbi, o'zligini belgilovchi asosiy unsurdir. O'zbek tili – o'zbek xalqining asrlar davomida tarixi, madaniyati va tafakkurini mujassamlashtirgan beباو meros. Bugun u mustaqil O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida yuksak maqomga ega. Ammo bu maqom nafaqat huquqiy hujjatlarda, balki amaliy hayotda ham o'z aksini topishi zarur.

O'zbek tili qadimgi turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, uning ildizlari ming yillik tarixga ega. Bu tilda Yassaviy, Navoiy, Mashrab, Ogahiy kabi allomalar asarlar yaratib, uni yuksak adabiy darajaga olib chiqqanlar. Ayniqsa, Alisher Navoiy o'z davrida o'zbek tilining

kuchli ilmiy va badiiy imkoniyatlarga ega ekaninini isbotlab bergan. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilinishi bilan milliy tiklanish, milliy ong va o'zlikni anglash jarayonlari yangi bosqichga ko'tarildi. Bu esa o'zbek tilining ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilash, uning maqomini mustahkamlash zaruratini yuzaga keltiradi. Mazkur qonun esa O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va boshqa qonun hujjatlariga asoslanib, o'zbek tilini davlat tili sifatida joriy etish, rivojlantirish va jamiyat hayotining barcha jabhalarida uning to'liq amal qilinishni ta'minlash maqsadida qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni 1989-yil 21-oktyabrda qabul qilindi.[2;1]. "Davlat tili to'g'risida"gi qonunda aks etgan huquqiy qonunlar keyinchalik, 1992-yilda Mustaqillik Qomusi – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida quyidagicha mustahkamlandi: "O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi"[3;3]. "Davlat tili to'g'risida"gi qonunning tarkibiga kiruvchi bir nechta moddalarda o'zbek tilining huquqiy asoslari belgilab berildi. Bu huquqiy asoslar tilga bo'lgan munosabatni yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, ushbu qonunning 8-moddasida: "O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinadi.

Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e'lon etiladi", - degan jumlalar qayd etilganligiga guvoh bo'lismiz mumkin.

Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkam bo'lsa-da, uni amalda to'g'ri qo'llash, rivojlantirish, til madaniyatini yuksaltirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ba'zi rasmiy hujjatlarda grammatik xatolarning uchrashi, xorijiy so'zlarning haddan ortiq ko'pligi, yoshlar o'rtasida tilga e'tiborning susayishi kabi holatlar til siyosatida yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Bugungi kunda o'zbek tilini rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, imlo qoidalari takomillashtirilmoqda, elektron lug'atlar, darsliklar yaratilmoqda, davlat idoralarida ish yuritishning o'zbek tilida olib borilishi rag'batlantirilmoqda. Prezidentimizning 2020-yil 20-oktyabrda imzolangan "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

farmoni alohida e'tiborga sazovorligini ta'kidlash lozim. Mazkur hujjatda o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'- e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlashga doir istiqboldagi vazifalar ko'zda tutilgan [4; 3]. Shuningdek, 2030-yilgacha mo'ljallangan o'zbek tilini rivojlantirish konsepsiysi, tilni o'rgatishga qaratilgan interaktiv dasturlar tilning amaliy hayotdagi rolini kuchaytirmoqda. Davlat idoralarida, ta'lim muassasalarida, OAVda o'zbek tilining keng qo'llanilishi til siyosatining samarali olib borilayotganligidan dalolat beradi. Ammo bu boradagi ishlar izchil davom etishi zarur.

Mustaqillikdan so'ng davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-sonli farmoni bilan o'zbek tilining nufuzini oshirish choralar belgilandi [5]. Bu bilan til siyosati yangicha bosqichga ko'tarildi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi mavqeini mustahkamlash maqsadida xorijiy davlatlarda o'zbek tilini o'rganish markazlari tashkil etilmoqda. Masalan, AQSH, Koreya, Turkiya, Rossiya, Vengriya kabi mamlakatlarda o'zbek tilini o'qitish kurslari faoliyat yuritmoqda. Quyida shu farmon va boshqa asosiy manbalar asosida til nufuzuni oshirishga qaratilgan asosiy masalalar keltirilgan:

1. O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash: Masalan: Bugungi kunda davlat idoralariga – hokimiyat, pasport stoliga yoki Moliya bo'limiga murojaat qilganingizda, hujjatlar o'zbek tilida rasmiylashtiriladi. Avval rus tilida yuritilgan ishlar endi to'liq o'zbek tilida olib borilmoqda.

2. Huquqiy asoslarni mustahkamlash: Misol uchun: "Davlat tili to'g'risida"gi qonun asosida ayrim xususiy tashkilotlar ish yuritishni o'zbek tiliga o'tkaza boshladi. Masalan, banklar SMS-xabarnomalarini o'zbek tilida yuborishga o'tgan.

3. Tilda ish yuritishni rivojlantirish: aytishimiz mumkin, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-saytlari, vazirlik portallari va elektron hukumat tizimi (my.gov.uz) o'zbek tilida ishlaydi, bu esa fuqarolarga ona tilida murojaat qilish imkonini beradi.

4. OAV va internetda o'zbek tilining mavqeini mustahkamlash: Masalan: Ko'plab blogerlar, jurnalistlar va YouTube kontent yaratuvchilari o'zbek tilida sifatli kontent tayyorlamoqda. "UzReport", Sevimli", "Zamon" kabi ko'rsatuv va kanallar ham o'zbek tilidagi yangiliklar bilan auditoriyani kengaytirmoqda.

5. Davlat tilining targ'ibotini kuchaytirish: Masalan: Har yili 21-oktayabr kuni "O'zbek tili bayrami" tadbirlari o'tkaziladi. Maktablarda insho tanlovlari, universitetlarda tilga

bag'ishlanga konferensiyalar va ommaviy tadbirlar tashkil qilinadi. Bu orqali biz yoshlarda tilimizga bo'lgan hurmat ortmoqda.

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlash, uning nufuzini oshirishga qaratilgan harakatlar hayotimizda aniq misollar orqali namoyon bo'lmoqda. Davlat idoralarida ish yuritishdan tortib, OAV, ta'lim, ilm-fan, internet va ijtimoiy hayotgacha – barcha sohalarda o'zbek tilining mavqeい tobora ortib bormoqda. Bu jarayonlar xalqimizning o'z tiliga bo'lgan hurmati, milliy iftixori va madaniy uyg'oqligidan dalolat beradi.

Yuqorida manbalar asosida aytishimiz mumkinki, o'zbek tili nafaqat aloqa vositasi, balki milliy g'ururimiz va mustaqilligimizning ramzidir. O'zbek tili – bu xalqimizning tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviy boyligining asosidir. Davlat tilining faqat qonunlar bilan emas, balki har bir fuqaroning ongli munosabati bilan mustahkamlanadi. Tilga hurmat – bu Vatanga, elga, millatga, hurmatdir. Demak, har birimiz tilimizni sevish, uni to'g'ri va chiroyli qo'llash, yosh avlodga o'rgatish orqali o'zimizning fuqarolik burchimizni ado etamiz.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Karimov.I. A. (2008). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent : Ma'naviyat nashriyoti;
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi (1989). O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risidagi Qonuni (21-oktyabr, № 3561-XII). LexUZ. <https://lex.uz/docs/109394>;
3. O'zbekiston Respublikasi. (1992). O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (8-dekabr). LexUZ. <https://lex.uz/docs/20596>;
4. "Kuch – adolatda" gazetasi, G'ulom Mirzo;
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon, PF-5850-son. <https://lex.uz/docks/4543266>